



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

IPAK AKATSIYASI (ALBIZIA JULIBRISSIN)NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MANZARALI AHAMIYATI

Shaymanov Sherzod Kamol o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assisenti

sherzodbekkamologli@gmail.com

Berdiyeva Shahrzoda Ibodullo qizi

Abdurayimova Mujgona Abdujalil qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabalari

Annotatsiya:

Maqolada Albizia julibrissin Durazz. (ipak akatsiyasi) daraxtining bioekologik xususiyatlari, ekologik moslashuvchanligi, morfologik belgilari hamda landshaft dizaynidagi ahamiyati yoritilgan. O'zbekistonning turli agroiklim sharoitlarida o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, ko'paytirish usullari va parvarishi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Albizia julibrissin, ipak akatsiyasi, bioekologiya, landshaft dizayni, manzarali daraxt, introduksiya.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va hukumat qarorlarida aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog'lom va to'laqonli estetik tabiiy muhit yaratishdir. Bu ma'noda ko'kalamzorlashtirish sohasi landshaftli qurilish va landshaft arxitekturasini bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-son qarori bilan "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarini" tasdiqlangan, 2013 yil 13 avgustdagi 223-son qarori bilan esa "O'zbekiston Respublikasida

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

landshaft dizaynini rivojlantirish Dasturi” qabul qilingan va unda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Asosiy qism. Ipak akatsiyasi (*Albizia julibrissin* Durazz.) — Dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub yaproqbargli manzarali daraxt bo‘lib, vatani Janubi-Sharqiy Osiyo va Eron tog‘ oldi hududlaridir. Uning estetik ko‘rinishi, uzoq davom etuvchi gullash davri, soyabonsimon toji va qurg‘oqchilikka bardoshliligi sababli manzarali bog‘dorchilikda keng foydalaniladi. O‘zbekiston iqlim sharoitida bu tur muvaffaqiyatli introduksiya qilingan va obodonlashtirish sohasida keng joriy etilmoqda.

Ipak akatsiyasi o‘rtacha 5 - 12 metr balandlikka ega. Toj qisman yastilashgan, keng soyali. Barglari ikki marta patsimon murakkab, 20 - 40 sm uzunlikda, har bir barg 30-50 tagacha mayda bargchalardan iborat. Yaproqlar kechqurun yopilib, tongda yana ochiladi. Bu fiziologik nyastik harakat hisoblanadi.

Gullari mayda, juda ko‘p sonli, sarg‘ish-oq rangli gulbargli, lekin uzun pushti ipdek changchilari tufayli gul ipakka o‘xshash ko‘rinishga ega. To‘pgul ko‘rinishidagi infloresensiya 10 - 20 tagacha gulni qamrab oladi. Gullash muddati iyun - avgust oylariga to‘g‘ri keladi. Mevalari - yassi, uzun dukkaklar bo‘lib, har birida 5 - 12 dona urug‘ mavjud.



1-rasm. Ipak akatsiyasi yoki Albisiya daraxtining va gullarining ko‘rinishi



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

Albizia julibrissin - issiqliksevar, yorug'liksevar va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik. Vegetatsion faoliyatini +12 +15 °C da boshlaydi. Yosh nihollar –5 °C gacha sovuqqa bardosh beradi, kattaroqlari esa –12 °C gacha sovuqqa chidamli. O'rtacha namlik talab qiladi. Sho'rlanishga chidamsiz, doimiy nam tuproqlarda o'sishi sekinlashadi. Yengil, unumdor, yaxshi drenajlangan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Og'ir loyli va botqoqlashgan tuproqlarda sust o'sadi. Yorug'liksevar, soyada gullash sust bo'ladi.

O'zbekistonda olib borilgan kuzatuvlar natijasida ipak akatsiyasi bahor faslida tez barg chiqarishi, yoz davomida faol o'sishi va kuchli shoxlanish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Ipak akatsiyasi asosan urug' bilan ko'paytiriladi. Urug'lar dukkaklar pishgach (oktyabr-noyabr) yig'iladi, qobig'i qattiq bo'lgani sababli skorifikatsiya (termik yoki mexanik) bilan ishlov beriladi. 12-24 soat davomida iliq suvda ivitilgach, unib chiqish qobiliyati oshadi.

Qora dengiz bo'yidagi shaharlarda ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida ko'p ekiladi. Toshkent shahrining xiyobonlarida, parklarida uni uchratish mumkin, lekin unchalik ko'p tarqalmagan. Albitsiya yosh vaqtida qattiq sovuqdan zararlanadi.

Lekin bizning Termiz shahri hududlaridada qattiq sovuq kam bo'ladi, shuning uchun uni keng miqyosda shaharlarni va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish uchun ekish tavsiya qilinadi. Uni yakka holda yoki guruh qilib ekish maqsadga muvofiq. Shahar sharoitlariga chidamli. Shaharlardagi gaz va chang ta'siriga nisbatan nisbatan bardoshliligi tufayli uni ko'cha bo'ylari, xiyobonlar, maydonlarda ekish tavsiya etiladi.

Xulosa

Ipak akatsiyasi (Albizia julibrissin Durazz.) o'zining biologik, ekologik va estetik afzalliklari bilan O'zbekistonning turli iqlim hududlarida o'sadigan, ko'p funksiyali manzarali o'simliklardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bu tur nafaqat manzarali obodonlashtirishda, balki ekologik muhitni yaxshilash, shahar mikroiklimini mo'tadillashtirish, chang va gazni ushlash, asalarilarni jalb qilish kabi bir qator ekologik funksiyalarni ham samarali



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

bajaradi. Qurg'oqchilikka bardoshliligi va uzoq muddatli gullashi shahar landshaft dizaynida keng joriy etilishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish Dasturini tasdiqlash to'g'risida" (O'zR Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 13 avgustdagi 223-son qarori). – Toshkent, 2013.
2. Qayimov A.Q., Berdiev E.T. Dendrologiya (Darslik). – Toshkent, "Cho'lpon" ijodiy-matbaa uyi, 2012. – b.330.
3. Славкина.Г.И, Подольская.О.И. Декоративное садоводство. Озеленение населенных мест– Ташкент, Издво.» Мехнат», 1981. – с.178.
4. Vildanova.K.D. Декоративные кустарники. – Toshkent. Tipografiya "Sharq" 2006. – s.45.
5. Shaymanov.Sh "Sovun daraxti (*Koelreuteria paniculata*) urug' ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi" // Barqaror o'rmonchilik IV xalqaro ilmiy-texnik anjuman – 432-434 b. 2024 y.
6. Shaymanov.Sh, Turayeva.G "Hind nastarinini urug'idan ko'paytirish" // Agroinnovatsiya 678-682 b. 2024
7. Shaymanov.Sh va boshqalar "Surxondaryo viloyatining shahar va tuman markazlarini ko'kalamzorlashtirishda magnoliya (*magnolia*) ko'chatlarini yetishtirish" // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi 41-42 b. 2022-y